

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

PIRIMQUL QODIROV ILMIY QARASHLARIDA BADIY TIL MUAMMOLARI

Xurshidabonu Sattorzoda Sobir Qizi

Qarshi davlat universiteti, 10.00.02 ixtisosligi tayanch doktoranti

E-mail: sattorzodaxurshidabonu@gmail.com

***Annotatsiya:** Badiiy adabiyotning asosiy quroli bo’lmish badiiy so’z o’z qudrati ila necha asrlardan buyon insonlar qalbiga orom baxsh etib kelmoqda. Badiiy asar uchun asosiy ta’sir vositasi badiiy so’z bo’lsa, badiiy so’zni shakllantirgan omil tildir. Tilsiz insoniyatni tasavvur qila olmaganimizdek, yozma va og’zaki adabiyotni ham uningsiz tasavvur etib bo’lmaydi.*

Mazkur maqolada Pirimqul Qodirovning badiiy til haqidagi izlanishlari va tadqiqot samaralarining o’ziga xos xususiyatlari va badiiy til muammolarining badiiy matn nuqtayi nazaridan kelib chiqqan yechimlari batafsil muhokama qilingan. Tadqiqotda olimning badiiy til haqidagi ilmiy kuzatishlari jamlangan ilmiy risolalari va badialaridagi asosiy g’oya va ilmiy maqsadlar o’zaro qiyoslangan.

***Kalit so’zlar:** lingvopetika, badiiy so’z, badiiy asar tili, realistik proza, ilmiy risola, badiiy matn, adabiy til, jonli xalq tili, til elementlari, fonetika, semantika, leksikologiya, dialektologiya, morfologiya, sintaksis, stilistika, punktuatsiya.*

Badiiy adabiyot, ya’ni badiiy asar tili bu badiiy asarda foydalaniladigan til vositalarining umumiylik ko’rinishidir. Bunda tilning umumiy xususiyatlarini nazarga tutgan holda deyarli barcha til elementlaridan foydalaniladi. Fonetika, semantika, leksikologiya, dialektologiya, morfologiya, sintaksis, stilistika, punktuatsiya va boshqalar badiiy asar tilini yaratishda, shakliy va mazmuniy butunligini ta’min etishda ishtirok etadi. Dunyo adabiyotida badiiy adabiyot ya’ni badiiy asar tili masalasi hamisha munozarali bo’lib kelgan.

Til badiiy adabiyotsiz yashashi mumkin ammo badiiy adabiyotsiz tilsiz mavjud emas. Janridan qat’iy nazar barcha badiiy asarlarda tilning turli badiiy tasvir vositalaridan, qolaversa, o’rni kelganda turli sheva va uslublardan ham unumli foydalaniladi. Ayrim o’rinlarda badiiy adabiyot til qonuniyatlariga bo’ysunmaydi. “Yangi tasvir vositalarini izlashda ba’zi hollarda ijodkor adabiy til normalarini buzishi ham mumkin. Masalan rus futuristlari (Mayakovskiy, Xlebnikov, Severyanin va boshqalar) neologizmlarni yaratib, sintaktik va grammatik normalarni o’zgartirishgan.”¹ Umuman olganda, adabiy tilning shakllanish va taraqqiy etish bosqichlarini ma’lum ma’noda aks ettirib turuvchi vosita bu badiiy adabiyot namunalari hisoblanadi. Badiiy asarlar tili ham ijodkor uslubini, ham yaratilgan davr til xususiyatlarini, millat tarixi, madaniyati, turmush tarzi, etnik kelib chiqishi va boshqa jarayonlarni o’zida mujassam etuvchi umumiy tushuncha desak

¹ Т.В.Надозирная, Л.А.Скубачевская. ЕГЭ Литература: Справочник. – М: ЭКСМО- 2009

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

adashmaymiz.

Jahon adabiyotshunosligida badiiy asar tili tahliliga bag’ishlab ko’plab ilmiy nazariy tadqiqotlar yaratildi. Rus adabiyotshunosligida A.A. Potebnya, Yu.Tinyanov, V.V.Vinogradov, O.M.Fredenberg, A.N.Veselovskiy, Ya.Mukarjovskiy, M.B.Xrapchenko² va boshqa ko’plab olimlar lingvopetikaning turli aspektlariga doir bir qator nazariy va metodologik tadqiqotlarni olib bordilar. Shuningdek, so’nggi yillarda milliy adabiyotshunosligimizda bir qator ilmiy izlanishlar lingvopetikaning nazariy masalalariga bag’ishlangan. O.S.Yusupovaning “Adabiy til va badiiy asar tili xususida”, M.A.Hakimovaning “Adabiyotshunoslikda badiiy asar tili va badiiy nutq uslubi”, I.Y.Seytnazarova “Badiiy asarni tadqiq qilishning nazariy asoslari” kabi ilmiy nazariy tadqiqotlar amalga oshirildiki, adabiyotshunoslikda hali bu masala yechimtalab ekanligini anglatadi. Bu tadqiqotlar asosan masalaning nazariy tomonini ochib berishga qaratilgan. Lekin ma’lum bir ijodkorning badiiy asarlari tilini o’rganish ilmiy jamoatchilik orasida allaqachon boshlangan edi. Lingvopoetikaning nazariy masalalarini badiiy matn nuqtayi nazaridan tahlil etish yo’liga Pirimqul Qodirov o’tgan asrning 70-yillaridayoq o’zining ilk qadamini qo’ygan edi.

Adibning estetik pozitsiyasi adabiy til haqidagi ilk mulohazalaridanoq o’z so’ziga ega ekanligini anglatib turardi. Pirimqul Qodirov yozuvchi bo’lmaganida haqiqiy ma’noda adabiyotshunos va munaqqid bo’lgan bo’lard. Negaki uning adabiy nazariy qarashlariga adabiy jamoatchilik tomonidan har doim qiziqish bildirib kelindi. Uning adabiy asar tili haqidagi nazariyalarining qiymatini “Adabiyot nazariyasi” kitobining ikki bobini yozib berganligidan ham anglash qiyin emas.³ Xususan, uning til haqidagi adabiy qarashlari debochasi sifatida ilk bor yozilgan “Til va dil” risolasida lingvopetika borasida qimmatli fikrlar va nazariyalar jamlangan. Unda adib prozaik sifatida badiiy asar tilining nasrga xos xususiyatining namoyon bo’lishini tushuntirib o’tadi. O’zbek adabiyotida Pirimqul Qodirovgacha hech kim badiiy tilga bunchalik chuqur yondashmagan edi. Shu sababli adib hatto adabiyot va til o’rtasida yangi fan borligi va u aynan badiiy asar tili ekanligini ko’p bora

² Потеня А. А., Из записок по теории словесности, Харьков, 1905; Тынянов Ю., Якобсон Р., Проблемы изучения литературы и языка, «Новый ЛЕФ», 1928, № 12; Литературные манифесты. (От символизма к Октябрю), 2 изд., М., 1929; Виноградов В. В., 1) О художественной прозе, М.—Л., 1930 (переизд.: О языке художественной прозы, в его кн.: Избранные труды, М., 1980); 2) О языке художественной литературы, М., 1959; 3) О теории художественной речи. М., 1971; Фрейденберг О. М., Проблема греческого литературного языка, в кн.: Советское языкознание, т. 1. Л., 1935; Веселовский А. Н., Историческая поэтика, Л., 1940; Тынянов Ю., Проблема стихотворного языка. Статьи, М., 1965; Мукаржовский Я., Литературный язык и поэтический язык, пер. с чеш., в кн.: Пражский лингвистический кружок. Сборник статей, М., 1967; Храпченко М. Б., Язык художественной литературы. Ст. 1—2, «Новый мир», 1983, № 9—10;

³ Izzat Sulton, “Adabiyot nazariyasi”, “O’qituvchi” nashriyoti, Toshkent-2005-y

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

ta’kidlaydi.

1972- yilda chiqqan “Til va dil” risolasi hajmi garchi juda kichik bo’lsa-da, adabiy jamoatchilik tomonidan iliq kutib olindi. Undagi jonli xalq tilining ahamiyati haqidagi fikrlar tarixiy genezisga asoslanadi. Adib milliy tillarning qorishuvi barcha davrlar uchun xos bo’lgan hodisa ekanligini ta’kidlarkan, bundan bir necha asrlar ilgari turkiy va forsiy, italyan va lotin, fransuz va italyan, rus va fransuz tillarining qorishuvi haqida asosli ma’lumotlarni keltirib o’tadi. O’z navbatida har bir davr uchun jonli xalq tilini saqlab qolish uchun kurashgan millat jonkuyarlarining qilgan amaliy ishlarini tahsinga sazovor deb biladi. Xususan, Alisher Navoiyning “Muhokamat-ul lug’atayn”, Dantening “Ilohiy komediya” si jonli xalq tilining sofligini saqlashga qaratilgan amaliy harakatlar deb baho beradi. Shuningdek, Andre Etyen fransuz tilining italyan tili ta’siriga tushib qolganligini kulgu ostiga olgani, N.A.Karamzinning fransuz tili ta’siridan xalos bo’lgan rus tilini asrab qolishga qaratilgan sa’y harakatlarini e’tirof etadi. Pirmqul Qodirov sun’iy ya’ni jonli xalq tiliga aralashgan boshqa tillarni o’zga bog’dan tuvakka ko’chirib olingan gullarga qiyoslaydi. Tuvakdagi gullar kabi uning tomiri chegaralangan va keng quloch yoza olmaydi va tabiiyligini yo’qota boradi deb hisoblaydi. “Shunga o’xshab, har bir til o’z xalqining tarixiga, urf-odatlariga, psixologiyasiga, turmush sharoitlariga chambarchas bog’langan bo’ladi va bu bog’lanish iplari uzila boshlasa til o’zining tabiiy kuchini, go’zalligini, boyligini yo’qota boshlaydi.”⁴ Darhaqiqat, til xalqning turmush tarzidan uzoqda rivojlana olmaydi. Adabiy til esa jonli xalq tili asosida shakllanadi. U 1989-yil “Yoshlik” jurnalida bergan intervyusida adabiy tilni adabiyotning asosiy quroli deb ataydi.⁵ Qolaversa, maqolada aynan tilga bo’lgan e’tibor o’tgan asrning 60-70-yillarida biroz susaygani, adib o’zining “Til va dil” hamda “Xalq tili va realistik proza” asarlari aynan shu yillarda yozilgani va bu uning bir necha yillik ilmiy ishlari mahsuli ekanligi aytib o’tadi. U tilda teng huquqlilikni tarafdori. Uningcha, bir tilni ikkinchi tildan ustun qo’yish noto’g’ri, faqat asosiy jonli xalq tilini saqlab qolish kerak. Kitobda Pushkin, N. Karamzin, I.A. Goncharov, P.Ramus, L.N.Tolstoy kabi rus adabiyotshunos va tanqidchilarning jonli xalq tiliga bag’ishlangan fikrlarini analiz qiladi va o’z xulosasini kitobxonga taqdim etadi. Adib jonli tilning balandparvoz va kitobiy so’zlar bilan burkanganda rost va yolg’ondan ajratish qiyin bo’ladigan darajada jimjimador bo’lmasligini ma’qul deb biladi. Milliy adabiyot tili realistik xususiyatlar bilan yo’g’rilgan bo’lmog’i lozim deb hisoblaydi. Adib ilk tadqiqotlarida o’z nazariyalariga jonli tilning soddaligi va

⁴ Qodirov P. “Til va dil”., Toshkent, “O’zbekiston” nashriyoti, 1972-yil, 7-bet.

⁵ Qodirov P. “Til, tarix, muhabbat”- Yoshlik jurnali 1989-yil, 5-son, 42-bet

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

realistik adabiyotda zuhur topishi til taraqqiyotiga va ommalashishiga xizmat qilgan vosita bo’lganligini hisobga olgan holda yondashadi va kitobxonni ham shunday o’ylashga chaqiradi. Uning keyingi tadqiqotlarida ham umumiy maqsaddan uzoqlashmagan holda o’z adabiy qarashlarini sayqallaydi. Shu boisdan, Pirmqul Qodirovning 1972-yilda yozilgan “Til va dil” risolasi, 1973-yilda “Xalq tili va realistik proza”, 2005- yilda “Til va el” ilmiy badialari, 2010-yili qayta ishlangan va to’ldirilgan “Til va el” kitoblarida nihoyatda qimmatli va ilmiy ahamiyati yuksak bo’lgan mulohazalar, tahlillar, tanqidlar va izlanish samaralari o’rin olgan. Qiyoslash maqsadida turli yillarda chiqqan tadqiqotlardagi umumiy va o’ziga xos jihatlar quyidagi jadvaldan o’rin olgan:

1972-yil “Til va dil”	1973-yil “Xalq tili va realistik proza”	2005-yil “Til va el”	2010-yil “Til va el” (to’ldirilgan qayta nashr)
Olimning til haqidagi badiiy matn tahliliga asoslangan ilk risolasi. Asosan, prozada yozilgan asarlar tili hamda xalq tilining shakllanish tendensiyalari jahon tajribalari misolida muhokama etiladi.	Kitobda asosan jonli xalq tilining realistik nasrda ko’rinish berishi ilk prozaik asarlar yozila boshlagan paytdan boshlab toki XIX asrning ikkinchi yarmigacha bo’lgan nasriy asarlarda jonli xalq tilining namoyon bo’lishidagi xarakterli xususiyatlar adabiy nuqtayi nazardan tadqiq etiladi.	Badialar to’plami mustaqillikdan keyin yozilgan bo’lib, ijodiy qarashlar va yondashuvlardagi o’zgarishlar seziladi. Olim asosan bu kitobda o’zbek adabiy tilining eng qadimgi: ilk turkiy tildan toki Boburiylar davri tiligacha bo’lgan katta bir davrni qamrab olib, tilning rivojlanish jarayonini bosqichma-bosqich tadqiq eta boradi.	To’ldirilgan qayta nashr deb yozilganidan ham bilsa bo’ladiki, bunda asosan “Xalq tili va realistik proza” kitobidagi prozada badiiy til muammolari haqidagi boblar qayta ishlangan holda kiritilgan va Cho’lpon haqidagi ikki badia qo’shilgan. Qolgan qismlar 2005-yil nashri bilan deyarli farq qilmaydi.

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

Tan olish kerakki, ilmiy badiialarda muallifning ilmiy maqsadi deyarli umumiy: adib badiiy til muammolarini tahlil ostiga olish. Ammo tadqiq obyekti va adabiy estetik munosabatda ko‘zga ko‘rinarli tafovutlar uchraydi. Jamiyatda qator o‘zgarishlar bo‘lgani va mustabid tuzum ag‘darilib mustaqillika erishilganini hisobga olsak, g‘oyalar va tahlillarda farqning bo‘lishi tabiiy hol. Bundan tashqari yillar davomida adibning ilmiy salohiyati ko‘zga ko‘rinarli darajada ortib borganligining ham ta’siri seziladi. Shu o‘rinda aytib o‘tish kerakki, ulkan tajriba va adabiy jarayonni teran anglash qobiliyati olimning adabiyot nazariyasi haqidagi qarashlarida ham o‘z aksini topdi. Xususan, P.Qodirov o‘tgan asrning 70-yillarida O‘zFA ning Til va adabiyot instituti katta ilmiy xodimi va filologiya fanlari nomzodi sifatida filolog olimlar bilan birgalikda tayyorlangan ikki tomlik “Adabiyot nazariyasi” nomli fundamental tadqiqotning yaratilishida o‘z hissasini qo‘shdi.

Olimning badiiy til muammolarini mukammal o‘rganganligi sababli bu tadqiqotning «Adabiy asarning tili» «Adabiy-tarixiy jarayon haqida», «Ijod jarayoni» qismlarini yozib berishi jarayoni unga qiyinchilik tug‘dirmadi. Pirimqul Qodirov tomonidan yozilgan «Adabiy asarning tili» bobi shu kunga qadar badiiy til haqidagi o‘zbek adabiy-nazariy tafakkuri rivojida yirik ish sifatida o‘z qimmatini saqlab kelmoqda. Ushbu ulkan ilmiy asosga ega bo‘lgan ishda adabiy asarda badiiy tilning tutgan o‘rni, qahramonlar nutqining individual va tipik xususiyatlari, muallif nutqi va muallif obrazi, nasriy asarlar tilida tasvir vositalari, nasriy asarlar tilining ifoda kuchi va badiiy tahlil vositalari kabi masalalar o‘zining konkret va asosli yechimini topgan. Tadqiqotchi o‘sha paytda badiiy adabiyotning tiliga oid nazariy masalalar juda ko‘pligini chuqur his qiladi hamda o‘z ishida faqat realistlik proza tilining ayrim jihatlarini tahlil qilish bilan cheklanadi.

Pirimqul Qodirov o‘zining badiiy asar tili masalalariga doir ilmiy izlanishlarini «Badiiy til muammolari» nomli salmoqli maqolasida davom ettirdi. Muallifning to‘g‘ri ta’kidlashicha, o‘simlikning o‘sib chiqishi uchun suv va havo zarur bo‘lgandek, badiiy tilning estetik ahamiyati adabiyot uchun o‘ta muhimdir. P.Qodirovning mulohazasiga ko‘ra, badiiy asar tili masalalari adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan ham, tilshunoslik nuqtai nazaridan ham keng va asosli o‘rganilishi lozim.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, olimning fikricha, badiiy asar tili tahlili hamisha estetik tahlil bilan qo‘shib olib borilishi, badiiy til asarning boshqa jihatlari bilan uzviy birlikda tekshirilishi kerak. Bu esa juda mushkul. Hali bu ishning metodikasi ishlab chiqilgan emas. P.Qodirov haqqoniy ta’kidlaganidek, badiiy tilni

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

adabiy asar mazmunidan ajratib qo‘yish mumkin bo‘lmaganidek, uning nazariyasini ham adabiyotshunoslikning umumiy nazariy masalalaridan ajratib tashlash mumkin emas. Shunday ekan adibning badiiy til muammolariga bag‘ishlangan ilmiy- nazariy qarashlarini chuqur tahlil qilish va o‘zi ta’kidlaganidek badiiy matnning lingvopetikadagi o‘rnini belgilashni puxta o‘rganish dolzarbligicha qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Izzat Sulton Adabiyot nazariyasi. “O‘qituvchi” nashriyoti, Toshkent-2005-y
2. Nazarov B. “Til qadri: kitob javoningizga”., Sharq yulduzi.-2006
3. Qodirov P. “Til va el”, Toshkent., “Ma’naviyat” nashriyoti 2010-yil
4. Qodirov P., “Xalq tili va realistik proza”., O‘zbekiston SSR “Fan” Nashriyoti., Toshkent — 1973
5. Qodirov P., Til, tarix, muhabbat- Yoshlik jurnali 1989-yil, 5-son, 42-bet
6. Qodirov. P “Til va dil”., Toshkent, “O‘zbekiston” nashriyoti, 1972-yil, 7-bet.
7. Т.В.Надозирная, Л.А.Скубачевская. ЕГЭ Литература: Справочник. – М: ЭКСМО- 2009
8. Веселовский А. Н., Историческая поэтика, Л., 1940
9. Виноградов В. В., О теории художественной речи. М., 1971
10. Виноградов В. В., О языке художественной литературы, М., 1959
11. Виноградов В. В. О художественной прозе, М.—Л., 1930 (переизд.: О языке художественной прозы, в его кн.: Избранные труды, М., 1980)
12. Мукаржовский Я., Литературный язык и поэтический язык, пер. с чеш., в кн.: Пражский лингвистический кружок. Сборник статей, М., 1967
13. Потенбня А. А., Из записок по теории словесности, Харьков, 1905
14. Тынянов Ю., Проблема стихотворного языка. Статьи, М., 1965
15. Тынянов Ю., Якобсон Р., Проблемы изучения литературы и языка, «Новый ЛЕФ», 1928, № 12; Литературные манифесты. (От символизма к Октябрю), 2 изд., М., 1929
16. Фрейденберг О. М., Проблема греческого литературного языка, в кн.: Советское языкознание, т. 1. Л., 1935
17. Храпченко М. Б., Язык художественной литературы. Ст. 1—2, «Новый мир», 1983, № 9—10;